

MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATI LINGVOPOETIKASI VA PAREMIOLOGIK BIRLIKLARI TAHLILI

Kushbakova Dilnoza Avalboyevna

JDPU o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi

Qulmatova Madina

JDPU sirtqi bo'lim o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 5-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xalq shoiri Muhammad Yusufning lisoniy birliklardan foydalanish mahoratining badiiy matnda aks etish darajasini aniqlash, paremiologik birliklar va ularning lingvokulturologik tadqiqi va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish vazifalarini bajarish maqsad qilindi. Shuningdek, shoir she'riyati tili, ilmiy-leksik talqini, poetik nutq vositalari hamda shoir lirikasida xalqona uslub va o'ziga xoslikni ko'rsatish bosh maqsad qilib olindi.*

Kalit so'zlar: *paremiologiya, lingvokulturologiya, lingvopoetika, antiteza, leksik sath, semantik sath, lingvistik aspekt, stilistik aspekt, poetik vositalar, sintaktik figuralar, stilistik figuralar*

Annotation: *In this article, it is aimed to determine the level of reflection of the ability of the national poet Muhammad Yusuf in the use of linguistic units in the artistic text, to perform the tasks of paremiological units and their linguocultural research and their specific features. Also, the language of the poet's poetry, scientific-lexical interpretation, poetic speech tools, and showing the folk style and originality in the poet's lyrics were taken as the main goal.*

Key words: *paremiology, linguoculturalology, linguopoetics, antithesis, lexical level, semantic level, linguistic aspect, stylistic aspect, poetic tools, syntactic figures, stylistic figures.*

Аннотация: *В данной статье ставится задача определить уровень отражения способности народного поэта Мухаммада Юсуфа в использовании языковых единиц в художественном тексте, выполнении задач паремиологических единиц и их лингвокультурологическом исследовании и их специфических особенностей. Также в качестве основной цели были взяты язык поэзии поэта, научно-лексическая интерпретация, поэтические речевые средства, выявление народного стиля и своеобразия в лирике поэта.*

Ключевые слова: *паремиология, лингвокультурология, лингвопоэтика, антитеза, лексический уровень, семантический уровень, языковой аспект, стилистический аспект, поэтические средства, синтаксические фигуры, стилистические фигуры.*

O'zbek tilshunosligida matn tahlili mustaqil yo'nalish sifatida rivojlanib, badiiy matnlar lingvopoetikasiga doir bir qator ishlar, xususan, she'riy asarlarning lingvopoetik tadqiqiga alohida e'tibor berilgan. Natijada M.Yoqubbekova¹, I.Mirzayev², S.Karimov³, G.Yaxshiyeva⁴,

¹ Yoqubbekova M. O'zbek xalq qo'shiqlarida o'xshatish. – Toshkent: Fan, 2003. – B.93;

² Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Тошкент, 1992. – С.52;

³ Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi: Filol. fan.d-ri ...dis. – Toshkent, 1993. – B.293;

A.Abdullayev⁵, I.Hojaliyev⁶, D.Shodiyeva⁷, D. Ne'matova⁸, Y. Sayidov⁹, S. Normamatovlar¹⁰ tomonidan o'zbek yozuvchi va shoirlari ijodining lisoniy tadqiqiga doir ishlari fikrimizning yorqin dalilidir.

Shunday yutuqlarga qaramasdan, turli davrlarda ijod qilgan shoirlarning asarlari tili, uslubi, ularning she'rlaridagi birliklar to'liq lisoniy tadqiq etilgani yo'q. O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning she'riyati tilining lisoniy xususiyatlari ham ana shunday masalalardan hisoblanadi. Shoirning she'riyati lug'aviy-ma'noviy, uslubiy jihatdan bir qator o'ziga xosliklarga ega. Shu bois uning asarlari tilini lug'aviy-ma'noviy va uslubiy tomonlarini tadqiq etish lozim. Bizning ilmiy izlanishimiz ana shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Ilmiy faoliyatdan nazarda tutilgan asosiy maqsadga quyidagi vazifalarni bajarish orqali erishiladi:

- Muhammad Yusuf she'riyati tili va uslubining o'rganilish orqali badiiy nutq adabiy tilning voqelanish turi sifatida qaralishini tahlil etish;
- Muhammad Yusuf she'riyatida paremiologik birliklar va ularning lingvokulturologik tadqiq etish va ulardan olingan xulosalar sharhi;
- Shoir she'riyatida frazemalar va frazeologizmlarning ahamiyati, tip va turlarini ko'rsatib berish;
- Shoir ijodida aforizmlarning ko'rinishlari va lingvomadaniy jihatlarini ko'rsatish;
- Shoir ijodida poetik nutqning ilmiy-leksik talqini, poetik nutq vositalari hamda shoir lirikasida xalqona uslub va o'ziga xoslikni ko'rsatish.

Badiiy til umumxalq tili bazasida yuzaga keladi. Yozuvchi umumxalq tilidan foydalanar ekan, umumodatlangan me'yordan og'adi (ya'ni, til unsurlarini odatdagidan o'zga shakl, ma'no, tartib, munosabat va shu kabilarda qo'llaydi) va shu "og'ish"dan ma'lum badiiy-estetik maqsadni ko'zda tutadi. Bu xil og'ishlar tilning turli sathlarida – fonetik, morfologik, leksik, semantik, sintaktik sathlarda kuzatilishi mumkin. Badiiy tasvir va ifoda vositalari ijodkorning muayyan badiiy-estetik maqsadga erishish uchun umumodatlangan me'yordan og'ishi natijasida yuzaga keladi. Ular tasvirning jonli va to'laqonli bo'lishiga, ifodaviylikning kuchayishiga xizmat qiladi.

Leksik sathdagi me'yordan og'ish yozuvchining umumxalq tili bazasidagi leksik vositalardan foydalanishida ko'rinadi. Ma'lumki, umumxalq tilidagi so'zlar nominativ vazifani bajarish holatida ham tasviriylik va ifodaviylik imkoniyatlari jihatidan farqlanadi. Ya'ni, ijodkor ifoda va tasvirni so'z ma'nosiga daxl qilmagan holda, mavjud so'z xazinasidan "so'z tanlash" hisobigagina kuchaytirishi mumkin bo'ladi.

⁴ Yaxshiyeva G. O'zbek tilida fonografik uslubiy vositalar: Filol. fanlari nomz. diss. – Toshkent, 1996. – B.132;

⁵ Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli. – Toshkent: Fan, 1987;

⁶ Hojaliyev I. Tasvir nutq tipining lingvistik xususiyatlari. Filol. fanlari nomz... diss. – Farg'ona, 1998. – B.145;

⁷ Shodiyeva D. Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi: Filol. fanlari nomz... diss. – Toshkent, 2007. – B.144;

⁸ Ne'matova D. Cho'lpon publitsistik asarlarining lingvistik tahlili: Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent, 2000.

⁹ Sayidov Y. Fitrat badiiy asarlari leksikasi: Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent, 2001.

¹⁰ Normamatov S. Abdulla Avloniy she'riyati leksikasining ma'noviy-uslubiy xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent, 2014

O'zbek xalqining sevimli shoiri Muhammad Yusufning ijodida qo'llangan frazemalar to'liq tadqiqot obyekti bo'lgan emas. Tadqiqotimiz davomida shoir ijodiga va hayotiga bog'liq ayrim ma'lumotlarni aytib o'tishni lozim deb bildik. Biz quyida bildiradigan fikrlarimiz shoir ijodiga chizilgan betakror chizgilar ekanligiga hech shubhamiz yo'q. Uning ijodi, she'rlari haqida har qancha gapirsak oz. U o'z ijodi orqali chinakam xalqona o'zbek she'riyatining tamal toshini qo'yib ketdi, desak sira mubolag'a bo'lmaydi. Muhammad Yusuf milliy adabiyotimiz va madaniyatimizni rivojlantirish, xalqimiz ma'naviyati va ong-u tafakkurini yuksaltirish, yosh avlod qalbida o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini, ezgu fazilatlarni kamol toptirishga yorqin iste'dodi, betakror badiiy asarlari, ijtimoiy faoliyati bilan katta hissa qo'shgan, asarlari orqali o'quvchilar qalbida hayrat va hayajon uyg'otib kelayotgan betakror ijodkordir. Manzili va maqsadi aniq karvonda yuksiz ulovning o'zi bo'lmaganidek, Muhammad Yusuf ko'nglidan el qalbiga yo'l olgan so'z karvonining har bir satrida ona Vatan – O'zbekistonga beqiyos mehr-muhabbat, el xizmatiga kamarbastalik, zahmatkash va ulug' o'zbek xalqiga chin farzandlik ehtiromi, samimiyat va jo'shqin ehtiros bilan yo'g'rilgan chuqur ma'no, ohang, rang va joziba mujassamdir. Muhammad Yusuf she'riyati haqiqiy o'zbekona she'riyat sanaladi. Uning har bir asari ijodkor shaxsi va she'ri kabi tugal bir qiyofa kasb etganida nechog'li ta'sirchan kuchga aylanishga qodir ekanini namoyish etib turadi. U mamlakatimiz ozodligini hech ikkilanmay, Qodiriy va Cho'lpon kabi ulug' ijodkorlarning ko'ksini kuydirib ketgan buyuk armon ijobati sifatida qabul qildi. Shu bois butun borlig'ini, iste'dodini Vatan madhini tarannum etishga bag'ishladi. Muhammad Yusuf ijodiga xos yana bir muhim xususiyat - bu uning she'riyatida oltindek yarqirab turuvchi soddalik, xalqonalikdir. Uning har satri, har bayti, bir qarashda oddiy, ammo teran, obrazli mushohadalar bilan ziynat topgan. Biron bir she'rida mijg'ov gaplar, mubham tuyg'ular, mantiqsiz iboralar, nursiz kechinmalarni uchratmaysiz. U hech qachon mayda tuyg'ularga berilmaydi. Fikrlari- salmoqli, ifodasi ohorli, tuyg'ulari esa yorqin. Muhammad Yusuf hayotni butun murakkabliklari bilan idrok etadi, jamiyatdagi va odamlardagi illatlar, noqisliklarga ham ko'z yummaydi. Muhammad Yusuf o'zining sermahsul ijodi bilan vaqtli matbuotda ham tez-tez chiqib turdi. Uning ilk she'riy to'plami "*Tanish teraklar*" nomi bilan 1985-yilda e'lon qilingan. Shundan so'ng shoirning "*Bulbulga bir gapim bor*"(1987), "*Iltijo*"(1988), "*Uyqudagi qiz*"(1989), "*Halima enam allalari*"(1989), "*Ishq kemasi*"(1990), "*Ko'nglimda bir yor*"(1990), "*Bevafo ko'p ekan*"(1991), "*Yolg'onchi yor*", "*Erka kiyik*"(1992), "*Osmonimga olib ketaman*" singari o'nlab she'riy majmualari kitobxonlar qo'lga yetib bordi. U yirik poetik janrlarga murojaat etib, "*Osmonning oxiri*", "*Qora quyosh*" singari dostonlar yaratdi. Yurtimizning mustaqillikka erishishi Muhammad Yusuf ijodida yangi ufqlarni ochdi. Uning millat va yurt istiqloli sharafiga bitgan go'zal she'rlari o'zining samimiyliigi, soddaligi, badiiy mukammalligi bilan millionlar qalbida aks sado berdi. Shoirning "*Vatanim*", "*Xalq bo'l elim*", "*Dunyo*", "*Insho'lloh*", "*O'zbekmomo*", "*Iqror*", "*Tilak*" singari o'nlab she'rlari chinakam she'riyat yurtini qanday kuylamog'i lozimligini isbotlagan asarlar bo'lib qoldi.

Muhammad Yusuf she'riyati XX asrning 90-yillar adabiyotida muhim voqea bo'lgan edi. Shoir hayoti va ijodi haqida talaygina maqolalar matbuot nashrlarida chop etilgani rost. Lekin e'lon qilingan maqolalarning aksariyati shoirning yorqin xotirasiga bag'ishlangan. Uning ijodini badiiy va lisoniy jihatdan chuqur tahlil qilib beruvchi ilmiy tadqiqotlar esa sanoqligina. Muhammad Yusuf o'ziga xos shoir ekanligi bilan, she'rlari xalqona ohanglarda bitilganligi bilan boshqa shoirlar ijodidan keskin farq qiladi. Barcha badiiy adabiyot vakillarining so'z tanlashdagi va qo'llashdagi mahoratining tadqiq etilishi tilshunosligimiz rivojida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Mana shu jihat orqali yozuvchi va shoirlarning individual uslubi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham o'zbek tilshunosligida ijodkorlarimizning badiiy nutqining o'ziga xosligi, ularning til vositalaridan qay darajada foydalanish kabi jihatlar bosh mavzu sifatida o'rganilib kelinmoqda. Asosan, shu bugungi kungacha o'rganilgan tadqiqotlarning asosini nasriy asarlar tashkil qiladi. Bu ishlarining barchasi yuqori ilmiy salohiyatga va saviyaga ega ekanligini e'tirof eta olamiz. She'riy asarlarga ham alohida e'tibor qaratilayotganligi ham maqsadga muvofiqdir. Lekin ularning sonini ko'paytirish esa tilshunosligimizning dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Shunday ishlar ichida G.Muhammadjonovanning "80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi"(2003)nomli dissertatsiyasini keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir. Bu ishda *Shavkat Rahmon, Usmon Azim, A'zam O'ktam, Iqbol Mirzo* kabi shoirlar ijodi bilan bir qatorda Muhammad Yusuf she'riyati ham lingvopoetik jihatdan qisman bo'lsa-da tadqiq etilgan¹¹ Bu ilmiy ish ham shoir ijodini o'rganishga sabab bo'la oladi. Chunki, bu ijodkorning she'riyatini ilmiy jihatdan chuqur tahlil etishga deyarli e'tibor qaratilganicha yo'q. Shu sababli biz ham shoirning ijodini, she'rlarida unumtil iboralaridan qay darajada foydalanish mahoratini o'rganib chiqishga harakat qildik. Bundan tashqari, "Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi" (2007) mavzusida Dilfuza Shadiyeva nomzodlik dissertatsiyasini ishlab chiqqan¹². Bu ishda Muhammad Yusuf she'rlarini lingvopoetik jihatdan o'rganib, unda tilning badiiy tasvir vositalaridan, shuningdek, umuman tildan foydalanishdagi mahoratini tahlil qilishga e'tibor qaratgan. Bu ish orqali shoirning o'zbek tili rivojidadagi o'rnini belgilashga alohida ahamiyat bergan. Bu tadqiqot ishida Muhammad Yusufning antitezadan foydalanishi, she'rlarida sinonimlar, iboralar va o'zbek xalq maqollarining qo'llanilishi haqidagi fikrlarini ham bildirib o'tgan. Tadqiqot ishida muallif Muhammad Yusufning hali o'rganilishi kerak bo'lgan, yechimini kutayotgan jihatlari haqida ham to'xtalib o'tgan.

O'tgan yillar ichida badiiy asar tilini tadqiq etishga doir bir qator ishlar amalga oshirilgan. O'tgan yillar ichida badiiy asar tilini tadqiq etishga doir bir qator ishlar amalga oshirilgan. Bu ishlarda badiiy asar tilini o'rganish usullari, uning maqsad va vazifalari haqida turli qarashlar asoslab berilgani haqida ham yuqoridagi nomzodlik ishida bayon etilgan, jumladan, X.Doniyorov va S.Mirzayevlar badiiy asar tilini

11 Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi: Filol.fan. nomzodi...avtoref. –T, 2004.-B.23.

12 Shadiyeva D.Sh. Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi. Filol.fan. nomzodi...avtoref. –T, 2007. -B.25.

o'rganishning ikki aspektini ko'rsatganlar:

1.Lingvistik aspekt. Bu aspektda adabiy tilning o'sish o'zgarishlarini, undagi Grammatik kategoriyalar va so'zlarning leksik-semantik o'zgarishlarini aniqlash, nazariy fikrlarni isbotlash uchun badiiy adabiyot tilidan ko'rgazmali material sifatida foydalanadilar.

2.Stilistik aspekt. Yozuvchining so'z tanlash san'ati, obrazlar xarakterini til vositasida ochish va individuallashtirish mahorati, yozuvchining umumxalq tiliga bo'lgan munosabati...kabi masalalar ustida fikr yutitilib, yozuvchining mahorati, uning o'ziga xos tili haqida hukm chiqariladi"¹³. Demak, shoir ijodini o'rganishda mana shu jihatlarga alohida e'tibor qaratganligi muallifning ushbu keltirgan ma'lumotlaridan ham ayon bo'lib turibdi. Muhammad Yusuf tilini o'rganishda qaysi tasviriy vositalardan foydalanishiga, jonli til boyliklaridan qanday foydalanishiga, so'z va iboralar hosil qilishiga alohida diqqat berish lozimligi ushbu tadqiqot ishidan ham ma'lum. Umuman olganda, shoir she'riyatini o'rganishga alohida e'tibor qaratilishida muhtaram Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning ham xizmatlari nihoyatda beqiyosdir.

Darhaqiqat vatan barchamiz uchun muqaddas. Ana shunday vatanni sevgan vatanparvar shoirimiz. M.Yusuf lirikasida ona yurtimiz madh etilgan she'rlar juda ko'p. Uning she'rlari qanaqa dolzarb mavzuni ilgari surishidan qat'iy nazar har birining zamirida tug'ilib o'sgan diyori uning beqiyosligi e'tirof etilgan.

“M.Yusuf ijodida o'zbek xalqi yurtisiz tasvir topmaydi. Quyidagi parchada ham fikrimiz to'g'riligining guvohi bo'lamiz.

Ehtirom etganida ehronlari bor,
 Kekkeygan bo'yin egmagay zinhor.
 Beshik to'la jajji Islomlari bor –
 Tosh o'tmas qo'rg' o'xshaydi o'zbek
 Kindik qoni tomgan tuproq unga shon,
 Kerak bo'lsa, beso'z baxt etar u jon-
 Ko'krakka urmaydi: Vatan deb, Vatan!
 Alpomish o'g'longa o'xshaydi o'zbek”⁹.

Yuqoridagi she'rda asosan el ta'rifi, o'zbek millatiga xos fe'l-atvor chizgisi berilgan lekin, u yurtsiz hech kim emas. Shuning uchun ham, millat vatani birgalikda ajoyib suratga tushirilgan. Chunki, shairning o'zi uchun ham yolg'ondan Vatan deb ko'krak kerish yod narsa, shoir shunchaki og'iz ko'pirtitib qog'oz qoralamaydi. U bitgan misralar yuragidan, shoirning ko'ksidan hayotga kelgan. Shuning uchun ham M.Yusufning she'rlari purma'no va serjiloligi bilan ajralib turadi.

Quyida shoirning asarlarida qo'llangan maqollarning til xususiyatlari xususida to'xtalamiz. Shoir she'riyatida juda ko'plab maqol, matal shaklidagi iboralar aynan qo'llanilishi bilan bir qatorda, ularning qisqargan shakllari ham uchraydi. Shoir o'z she'rlarining ta'sirchanligini oshirish maqsadida xalq maqollarini keltirib, uning ma'nosiga yangi ma'no va

Shu avtoreferat, 8-bet.

⁹ Haqqul I. Mushohada yog'dusi. –T.: Fan, 2009, 22-bet.

tasvir baxsh etishga intilgan. Masalan, shoirning “Xalq bo‘l, elim” nomli she‘rida o‘zbek adabiy tilida keng qo‘llaniladigan “Bir mayizni qirraq bo‘lib yegan” maqoli kiritilgan. Bu maqol she‘r mazmuniga obrazlilik baxsh etgan:

Sen tebratgan beshigingni Sohibqiron,
Sening bolang yulduzlarga qo‘ygan Narvon.
Bir mayizni qirraq bo‘lgan bir tanu jon,
Kunlaringga qaytay desang - xalq bo‘l, elim (10-b).

Bu ibora she‘r misralarida aynan maqol holida keltirilib, she‘r obrazlilikining va ta‘sirchaligining yanada oshishiga xizmat qilgan. Shoir bu maqolni aynan keltirib, she‘rda ifodalangan g‘oyaning, maqsadning o‘quvchiga tezroq yetib borishini ta‘minlagan. Bundan tashqari shoirning quyida keltirilgan misrasida ham o‘zbek xalq maqollarida biri qo‘llanilgan:

Bo‘lingan bo‘lisning o‘chgay chirog‘i,
Ortga bir qayriling, mingta qiyos-ku.
To‘pga tutgan kuni Toshkentni yog‘iy,
Amir Nodirani so‘ygani rost-ku...(251-b).

Bu maqol ham she‘r mazmuniga mos ravishda obrazli tarzda qo‘llanilgan. Shoir o‘z she‘rlarida o‘zbek xalq maqollarini keltirish orqali xalqonalikni yanada kuchaytirgan. Shoirning “Osmonning oxiri” dostonidan olingan parchada “Har kim ekkani o‘radi” maqolining qisqartirilgan “ekkanini o‘rmoq” shakli keltirilgan. Bu iboradan kim qanday harakat qilsa shunga erishadi, nimani ekan bo‘lsa shuni oladi degan ma‘no anglashilib, xalqimiz tomonidan juda ko‘p hollarda ishlatilib kelinadi. Doston matnida quyidagicha keltirilgan:

Menga ayting-chi, bahorning egasi kim?..
Boychechakning boshlig‘i, binafshaning xo‘jayini-chi?..
Ekkaningni o‘rasan. Ekmaganingni esa, ko‘rasan, xolos (105-b).

Shoir Muhammad Yusufning “Hayrat” nomli she‘rida “Igna bilan quduq qazmoq” maqolining “ignada qazmoq” qisqartirilgan shaklidan foydalanilgan. Bu maqol qiyin ishni uddalamoq, mushkul ishni bajarmoq ma‘nosida ishlatiladi.

Ko‘shkingu ko‘rkingni ko‘z
Ilg‘amas yozgan bilan,
Har minoring osti ming
Ignada qazgan bilan...
Sen o‘zing ayt, Onajon,
Sen o‘zing aytgil, Vatan,
Inshoolloh, inshoolloh,
Aslingga qaytgil, Vatan (242-b).

Shoir she‘r mazmuniga, uning qofiyasiga mos ravishda bu maqolni qisqartirib, ibora shaklida mohirona qo‘llagan. “Jon sog‘ bo‘lsa jahon topilgay” maqolining “Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi” varianti xalqimiz tomonidan ishlatiladi. Shoir esa o‘zining quyidagi she‘rida bu maqolning obrazli tarzda o‘zgargan shaklidan foydalangan. Bu maqol joni sog‘-salomat bo‘lish, hamma narsa sog‘liq bilan bog‘liq ekanligini ifodalashga xizmat qiladi:

Derlar: jon sog' bo'lsa jahon topilgay,
Bir parcha yer, parcha osmon topilgay,
Lekin qayda sendek jonon topilgay,
Ketar bo'ldim o'zingdan bir so'rolmay... (53-b).

Muhammad Yusufning “Lolaqizg'aldoq” nomli she'ridan olingan quyidagi misrada: Endi osmon yiroq, Endi yer yumshoq (264-b) shoir tomonidan “Osmon uzoq, yer qattiq” maqoli mohirona o'zgartirilib, uzoq so'zi o'rnida unga ma'nodosh bo'lgan yiroq hamda qattiq so'zi o'rniga uning antonimi yumshoq tanlab olingan va qo'llangan. Maqollar xalq og'zaki ijodining eng ixcham, mazmunli ifodasi va kishilar nutqida ishlatiladigan ta'sirchan, qisqa va mantiqli shakl sifatida bugungi kunda ham faol nutq birliklaridan hisoblanadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, maqollar she'riyatda muhim o'rin tutadi, jumladan, maqolalar tilida muhim ta'sirchan vosita sifatida ishlatilayotganligi ma'lum. She'riyatda maqollarning qo'llanishi, birinchidan, kitobxonning diqqatini tortishga va maqolani qiziqib o'qishga undaydi, ikkinchidan, bir xillik, ya'ni til birliklarining takroriga yo'l qo'ymaslikka sabab bo'ladi, uchinchidan, fikrning ixcham, aniq, mazmunli, ekspressiv-stilistik bo'yoqdor bo'lishiga xizmat qilsa, to'rtinchidan, xalq og'zaki ijodining nodir namunasi misolida nutqimizni boyitishga, ma'naviy tarbiya olishimizga yordam beradi.

Badiiy til umumxalq tili bazasida shakllanadi va qisman adabiy til me'yorlariga yaqinlashadi. Shu bilan birga, badiiy til adabiy til me'yorlaridan o'rni bilan chekinadi. Badiiy til o'zida milliy adabiyotimizda uzoq davrlardan beri shakllanib kelgan an'analarning davomchisi sanaladi va shu bois ham unda uning o'zigagina xos bo'lgan unsurlar (an'anaviy sifatlashlar, ramz va majozlar, o'xshatishlar v.h.) majmuyi ham mavjuddir.

Badiiy tilning eng muhim spetsifik xususiyatlari sifatida obrazlilik va emotsionallikni ko'rsatdik. Badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalar umumlashtirilib, “badiiy tasvir va ifoda vositalari” deb ataladi. Badiiy tasvir va ifoda vositalari badiiy tilning belgilovchi xususiyati emas, balki belgilovchi xususiyat bo'lmish obrazlilik va emotsionallikni kuchaytiruvchi unsurlardir. Aytish kerakki, bu tushuncha adabiyotshunoslikda “poetik vositalar”, “sintaktik figuralar”, “stilistik figuralar” kabi nomlar bilan ham yuritiladi, bu vositalarning buni tasvir, buni ifoda vositasi deyish ham nomaqbul, chunki badiiy adabiyot so'z vositasida tasvirlaydi va shu tasvir orqali ifodalaydi. Ya'ni, ko'p hollarda bitta vositaning o'zi ham tasvir, ham ifodaga xizmat qiladi. Faqat lirik asarlarda qo'llaniluvchi ayrim vositalar borki, ular asosan ifodaviylikni kuchaytirish vazifasini bajaradi.

Badiiy til umumxalq tili bazasida yuzaga keladi. Yozuvchi umumxalq tilidan foydalanar ekan, umumodatlangan me'yordan og'adi (ya'ni, til unsurlarini odatdagidan o'zga shakl, ma'no, tartib, munosabat va shu kabilarda qo'llaydi) va shu “og'ish”dan ma'lum badiiy-estetik maqsadni ko'zda tutadi. Bu xil og'ishlar tilning turli sathlarida – fonetik, morfologik, leksik, semantik, sintaktik sathlarda kuzatilishi mumkin. Badiiy tasvir va ifoda vositalari ijodkorning muayyan badiiy-estetik maqsadga erishish uchun umumodatlangan me'yordan og'ishi natijasida yuzaga keladi. Ular tasvirning jonli va to'laqonli bo'lishiga,

ifodaviylikning kuchayishiga xizmat qiladi.

Leksik sathdagi me'yordan og'ish yozuvchining umumxalq tili bazasidagi leksik vositalardan foydalanishida ko'rinadi. Ma'lumki, umumxalq tilidagi so'zlar nominativ vazifani bajarish holatida ham tasviriylik va ifodaviylik imkoniyatlari jihatidan farqlanadi. Ya'ni, ijodkor ifoda va tasvirni so'z ma'nosiga daxl qilmagan holda, mavjud so'z xazinasidan "so'z tanlash" hisobigagina kuchaytirishi mumkin bo'ladi.

Yozuvchining umumxalq tilida mavjud so'zlardan umumodatiy holatdan o'zgacharoq foydalanishi quyidagicha badiiy-estetik maqsadlar bilan yuz beradi:

1. Davr koloritini (ruhini) berish uchun.

2. Adabiy tilda kam qo'llaniluvchi dialektizmlar badiiy asarda joy koloritini berish uchun qo'l keladi.

3. Badiiy obraz muayyanlik xususiyatiga ega.

4. Tasvir predmetiga munosabatni ifodalash.

Shu o'rinda semantik sathdagi og'ishlarga ham e'tibor qaratish lozim. Nutq jarayonida biz so'zlarni o'z ma'nosida yoki ko'chma ma'noda qo'llashimiz mumkin. So'zning odatiy ma'nosidan o'zga ma'noda qo'llanishi semantik sathdagi og'ish sanaladi. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarning umumiy nomi trop (ko'chim) deb yuritiladi. So'z ma'nosi ko'chishining, tropning metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya singari bir qator ko'rinishlari mavjud. Badiiy asarda qo'llanilgan ko'chimlar ishlatilish darajasi, badiiy bo'yoqdorligi, ta'sirchanlik darajasi kabi jihatlaridan bir-biridan jiddiy farqlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Muhammad Yusuf o'ziga xos shoir ekanligi bilan, she'rlari xalqona ohanglarda bitilganligi bilan boshqa shoirlar ijodidan keskin farq qiladi. Barcha badiiy adabiyot vakillarining so'z tanlashdagi va qo'llashdagi mahoratining tadqiq etilishi tilshunosligimiz rivojida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Davronova M.I. Muhammad Yusufning poetik mahorati. Filol.fan. nomzodi...avtoref. - Toshkent, 2008.- B.25.

2. Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o'zbek sheriya-tining lingvopoetik tadqiqi: Filol.fan. nomzodi...avtoref. -T, 2004.-B.23.

3. Shadiyeva D.Sh. Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi. Filol.fan. nomzodi...avtoref. -T, 2007. -B.25.

4. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. - T.: O'qituvchi, 1987.-256 b

5. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. -T.: Fan, 1995. - 278 b.

6. Rahmatullayev Sh.va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2009.

7. Muhammad Yusuf. Saylanma: She'rlar. Dostonlar. Shoir haqida xotiralar. - Toshkent: "Sharq", 2007. -B. 288.

8.G'anieva Sh. O'zbek frazeologizmlarining struktur tadqiqi. - Toshkent: Fan, 2013. - 135 b.

9. Abdusaidov A. Frazologizmlar - matbuot tilida ta'sirchan vosita. - Samarqand, 2001. - 48 b.

10. Aliev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiyat. T., 2000 130 bet.